

YOSH AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNII

Pardaboyeva Adiba

*Nukus Davlat Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlod kelajagi va tarbiyasida milliy urf-odatlar, qadriyatlarning o'рни, milliylikni anglash, Vatan ravnaqiga hissa qo'shishlari haqidagi mavzular yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyat, globallashuv, tarbiya, ta'lim, an'ana, madaniyat, millat, ma'naviy ong.

Abstract: This article is dedicated to the topics which cover the Future and Upbringing the young generation, the role of national traditions, values and realization of Nationalism and their contribution to the development of our Country

Keywords: National value, globalization, upbringing, education, tradition, culture, nation, spiritual consciousness

KIRISH

Hozirgi vaqtdagi dolzarb mavzulardan biri – bu mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, jismonan sog'lom hamda har tomonlama ma'naviy salohiyatini yuksak darajada shakllantirish hisoblanadi. Bularning natijasini 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun hamda uning uzviy davomi bo'lgan 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106 kabi ko'plab qaror va farmonlar ijrosida ko'rishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Yigit-qizlarimiz barkamol inson bo'lib ulg'ayishi uchun ma'naviy tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan turli qaror va farmonlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar, amaliy ishlar natijasida farzandlarimiz barcha sohalarda muvaffaqiyatga erishishmoqda. Farzand tarbiyasida asosiy bo'g'in bu albatta ota-ona hisoblanadi. Farzand insonga Haq taolo tomonidan berilgan eng buyuk ne'matdir. Demak, bu saodatga erishgan har bir ota-ona ne'matni qadrlamog'i lozim. O'g'il-qiz oldidagi ota-onalik burchini shamukammal ado etib, ularga chiroyli ta'lim-tarbiya berish, Haq taoloning roziligini topadigan,

millati, Vatanga munosib farzand bo'ladigan, tengdoshlari muhabbatini qozonadigan barkamol inson bo'lib yetishishi uchun jon kuydirish zarur. Farzandning tarbiyasi bo'lishi esa uning odob-axloqli bo'lishi bilan amalga oshadi. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov:

„Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar shakllantirish va kamol toptirish haqida so'z borar ekan, yana bir muhim

masala to'g'risida to'xtalib o'tish o'rinli deb o'ylayman.U ham bo'lsa dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib,undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqish va intilishlariga,xissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoq ishlab chiqarish masalasidir. Bir qaraganda bu muammo arzimas bo'lib tuyulishi mumkin.Lekin har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar,jumladan o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak,ularning inson tarbiyasiga o'rni beqiyos ekanligiga ayon bo'lamiz.Afsuski hozirgi kunda yoshlarimiz xorijda ishlab chiqarilgan o'yinchoqlarni o'ynab ulg'ayishmoqda. Marg'ilon shahrining 2000 yilligi munosabati bilan bu yerda xalq amaliy san'ati vakillari bilan uchrashganimda,ular orasida qo'g'irchoq tikish bilan shug'ullanuvchi bir ayolning ajoyib ishlari e'tiborimni tortgan edi. Mana shunday fidoi insonlar yurtimizda ko'plab topiladi.Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ma'naviy tarbiya masalasiga ayni vaqtda milliy hunarmandchilikning bu noyob turini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi"-deb ta'kidlagan edilar. Darxaqiqat,yoshlar tarbiyasida albatta milliylik,milliy qadriyatlarining o'rni beqiyos va katta.. Ayni damda globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan biri bo'lmish ommaviy madaniyatning yoshlar onggiga ta'siri nuqtai nazaridan olib qarajak, yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy barkamoligini shakllantirish, aqlan barkamol, ma'nan yetuk shaxslarni yetishtirish birmuncha mas'uliyatli va jiddiy vazifa bo'lib qolmoqda.Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedogogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda."Kelajak bugundan boshlanadi"³ deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir.Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari,urf-odatlarini asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga shorqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri

baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta'rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar-millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixini yashash tarsi, ma'naviyati, madaniyati orqali namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Ma'naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob aqidalari, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy jarayonlar majmuasidir. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuchdir" deydi yurtboshimiz I. A. Karimov o'z asarlarida. Ma'naviy qadriyatlar-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyani milliy shakllantirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochib berdi. Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanadi. Milliy tarbiya hayotning mohiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta'lim olish davrida milliy tarbiya o'quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. Jiga kata e'tibor bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim rBolaning Yoshi ulg'aygan sari bu faoliyat tobora ko'proq mustaqil xususiyatga ega bo'lib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib o'z atrofida qilarga munosabatda bo'lishiga ko'nikib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda o'z aksini topadi;

1. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi.
2. Tarbiyaning insonparvarlik qoidalari.
3. Tarbiyaning hayot bilan va mehnat bilan bog'liqligi.
4. Tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.

5. O'quvchilarni yoshi, sinfi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

Musiqqa san'atining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, insonning his-tuyg'ularini, kechinmalarini o'ziga xos badiiy tilda ifodalaydi. O'quvchilarni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit yaratadi. Ulardagi milliy tarbiyaga oid his-tuyg'ularni o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati darslarida umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi kuy-qo'shiqlar yordamida shakllanadi. Bunday asarlarga DTS musiqqa dasturiga kiritilgan qo'shiq va tinglash uchun asarlarni misol keltirishimiz mumkin. "Salom maktab" Sh. Yormatov musiqasi, "Paxtaoy" F. Nazarov musiqasi, "O'zbekistonim" Sh. Ramazonov musiqasi, "Oy Vatanim" E. SHvarts musiqasi, "Ex orzular" N. Norxo'jayev musiqasi kabi qo'shiqlar o'quvchilarda vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga xurmat tuygularini tarbiyalaydi. Umumta'lim maktablarida umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilarga tanishtirib borishni ahamiyati katta. Boshlang'ich sinflarda umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishda suhbat, hikoya, savol-javob va qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish lozim. Umuminsoniy qadriyatlar asosida ommaviy kuy-qo'shiqlarni o'rganishdan oldin ularga asar xususiyatini badiiy-g'oyaviy kelib chiqish tarixi haqida qisqacha suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishda boshqa fanlar bilan, masalan, adabiyot darslarida o'tiladigan mavzular bilan bog'lab olib borish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchi sinf o'quvchilari bilan xalq musiqqa san'atining asosiy xususiyatlari, ommaviy janrlari, an'analari haqida tushuncha berib, ular uzoq tarixga ega ekanliklarini soda, ravon, yorqin ohangda ijro etilishini tushuntirish shuningdek ularni ijro etadigan hofizlar, xonandalar, folklore guruhlar haqida savol-javoblar o'tkazish kerak. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida u kishilarni ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo'lib kelmoqda. Musiqqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo'shiq bilan, musiqqa bilan tirik. Kuy-qo'shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go'zallikni tasavvur etish qiyin. Qo'shiq zavq ehtiyoji, eng go'zal, eng olijanob orzu va hayotiy g'oya hayqirig'idir. Musiqqa madaniyati darslarida umuminsoniy qadriyatlar o'quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar o'quvchilarda milliy kuy-qo'shiqlarga ixlos uyg'otadi. Ularni musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg'usini o'stirib, musiqiy o'quvi va didini o'stiradi.

2. O'quvchilarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo'shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

3. Alla, lapar, terma qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o'sib boradi. Musiqa ohanglari lad va ritm tiyg'usi usullari asosida o'rgatiladi. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda pianino cholg'u asbob bilan birgalikda o'zbek milliy cholg'u asboblaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa doira chertib, qo'shiq kuylash, milliy raqs elementlarini ijro etish, ijodkorlik bilan shug'ullanish o'quvchilarni sehirli musiqa olamiga oshufta etadi. O'quvchilar bu jarayonda o'zbek xalq musiqa madaniyatini ijobiy an'analarini bevosita idrok etadilar. Maktabda o'quvchilar musiqiy estetik tarbiyani xalq musiqasi na'munalari orqali o'rganadilar. Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablarida bolalarni xalq musiqasi bilan tanishtirish DTS musiqa dasturi asosida olib borilmoqda. Ta'limni milliy ruhda rivojlantirish maqsadida birinchi sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasi bilan tanishtirib boriladi. Bunga misol qilib, I dasturida tinglash uchun birinchi "Dutor bayoti", "Andijon polkasi", "Farg'onacha", "Olmacha anor", "Allama yorim" kabi kuy-qo'shiqlarni keltirishimiz mumkin. Xalq musiqasi bolalar ongiga tez yetib boradi, ularni zavqlantiradi. Ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Chunki xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egdir. Unda milliy musiqa san'atimizning eng yorqin na'munalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi eng soda eng ixcham ravon yorqin ohangda ijro etiladi. Shuning ushun ham beshikda yotgan go'dak alla qo'shig'ini eshitishi bilan orom olib uxlab qoladi. Chunki, bu ohangda so'z, kuy, mutanosibliigi og'zaki ijro etiladi. Shuning uchun ham ohanglar bir-biriga payvastdir. Asrlar davomida o'zbek kuy-qo'shiqlari xalqimiz orasida mehnat, to'y-marosim, kurash bayramlarida insonlar uchun ilhom manbai bo'lib kelgan. Biz musiqa madaniyati darklarida boshlang'ich sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlarini bolalarga tushunarli, tez va ifodali qilib yetkazish uchun turli metodlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz zarur. Musiqa san'ati boshqa san'at turlariga qaraganda insonlarga yaqin bo'lgan muhim san'at turidir. Xalqimiz azal-azaldan boy musiqa merosiga ega bo'lgan. Bebaho qadriyatlarimiz, boqiy merosimiz jahonni xayratga slogan mumtoz musiqa san'atimiz mavjud. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmunli va yo'nalishi umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida belgilangan. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, milliy ma'sulyat tuyg'usini anglaydigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatni mustaqil va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni

taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va yosh avlodni musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa darslariga bevosita bog'liq. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq. Musiqa ta'lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak. Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi. Ikkinchidan musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalar ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlardan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalanadi. Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorlari kabi bosqichlar bir-biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubhasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari pedagog – tarbiyachi

kadrlar oldida dolzarb bo'lib turgan eng muhim vazifa yoshlar ongiga milliy istiqloq mafkurasi g'oyalarini singdirishda musiqa madaniyati faning ham imkoniyatlari juda boy va rang- barangdir. Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yori haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yori shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin. Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni,

mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi. Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va hokazolar Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi. Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosi aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarini o'zida shakllantirib borishi lozim. Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rne beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu

jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonning mashhur mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarini egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, - deydi Arastu, - ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?».

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnoma» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, O'bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolotlaydi. Bizdan talab qilinadigan narsa esa, yoshlarimiz va farzandlarimizni milliy o'zlikda, milliy ruhda tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov „Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch“, Toshkent- Ma'naviyat 2008y
2. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari, T.:1996y,

3. Ma'naviy qadriyat va yoshlar tarbiyasi- Toshkent, "O'qituvchi", 1996y
4. U. Alimov, "Oilada farzand tarbiyasi", T.: 2019y